

**O‘TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA ONA OBRAZINING
BADIY TALQINI**

Tovboyeva Gavhar

*O‘zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti 207-guruh talabasi*

G.Q.Raximova

ilm.rah.: dots

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasidagi ona obrazi tahlil qilingan. Asar yozuvchining hayoti, bolaligi haqida bo‘lib muallifning onasi qissaning bosh qahramonidir.*

Kalit so‘zlar: *Tilsim, ona, Alloh, alla, novella, davomiylik*

Adabiyot o‘z bag‘rig‘a olamlarning sir-u sinoatlarini jamlagan bir tilsim. Uni har kim o‘z bilganicha tushunadi. Har kim aqilli va kuchi yetganchalik foydalanadi. Tilsim uni ochgan har kim uchun har xil tuslanadi, nafis tovlanadi. Kimdir adabiyotdan o‘rnak olsa, kimdir kuch oladi, kimdir bilim oladi, kimlardir havas yana kimdir shukr oladi. Ming afsuslar bo‘lsinkim adabiyot tilsimidan hech narsa olmaydigan insonlar ham serob. Hayot o‘zi shunaqa, shunday yaralgan ko‘zguga o‘xshaydi u bizga o‘z aksimizdan ortig‘ini ko‘rsatmaydi. Ya‘ni qanday umr kechirishni istasak shunday yashaymiz. Shukr qilganimiz sayin Alloh ne‘matlarini yanada ko‘proq beraveradi. Noliganimiz sayin boriga qanoat qilishni o‘rganmaganimizcha Alloh qo‘limizdagilarni birma bir bizdan oladi. Aslida shukr qilishni bilgan odamga ortiqcha narsalar kerak emas. Boriga baraka deya olish ham ajoyib fazilat bo‘lib u inson yoshligidan qon qoniga singdirilsagina ortiqcha harajatlarsiz baxtni kafolatlaydi. Insonda yaxshi fazilat ona mehri, oq suti, shirin allasi kabi vositalar yordamida shakllanadi. Olimlarning fikricha alla so‘zi Alloh so‘zidan kelib chiqqan ekan. Voholangki onalar har tun farzandining orom olmog‘i uchun alla barobarida Allohni yodga olib, nuridiydasining qalbiga Allohga bo‘lgan muhabbatni joylar ekan. Adabiyot hayotning biroz bo‘rttirilgan ammo eng qizg‘in, eng chirkin bir qismi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ona obrazi adabiyot tilsimining eng chuqur tomirlaridan, eng yuqori yaprog‘igacha o‘z o‘rniga egadir. Ayollar obrazi o‘zbek badiiy adabiyotda asosiy qahramon sifatida XX asrning dastlabki yillarida paydo bo‘la boshladi. Lekin ona timsoli shu davrgacha bo‘lgan o‘zbek badiiy adabiyotida ham deyarli har bir asarda mavjud bo‘lib ular voqealar markazida turmasa ham voqealarning rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Onalar haqida yozilgan asarlarning hammasi ta‘sirli va qiziqarli bo‘lishi aniq. Shu o‘rinda ijodining asosiy qismini onalar va urush mavzusi qamrab olgan ma‘lum va mashhur inson, tengsiz yozuvchi O‘tkir Hoshimov asarlarini yod etmaslik mumkin emas. O‘tkir Hoshimov 1941-yil, 5-avgustda Toshkent shahrida oddiy bir oilada

dunyoga keldi. Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi mashaqqatli davrga to'g'ri keldi. „O'sha davrda non tanqis bo'lgani bilan kutubxonalarda kitob ko'p edi“, deya eslagan edi yozuvchi o'z xotiralarida. Bu yozuvchining urushning og'ir damlarida ham ilmga chanqoq bo'lganidan darak beradi. O'tkir Hoshimov o'zining "Dunyoning ishlari" qissasini bir timsol atrofida jonlantirgan. Bu uning munis onasi. Bu haqida u shunday deydi: "Bu qissa katta-kichik novellardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam — onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog'langan"

Bu asarni o'qigan inson asarda o'z onasini ko'rmasligi begumon. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday tariflagan: „Dunyoning ishlari“ asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofqa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi" Har bir kitobxon umri davomida bir marta bo'lsada o'qishi kerak bo'lgan asarlar safiga hech ikkilanmay "Dunyoning ishlari" qissasini kiritgan bo'lar edim. Asarda shunday jumlar borki go'yo siz uni doim dilingizga tugib yurgansiz-u, lekin qanday tilga chiqarishni bilmagansiz. Qissani o'qib beixtiyor"ko'nglimdagini yozibdi" -deb yuborasiz.

"Har kim har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir" Davomiylik nima? Bu ma'lum ketma-ketlikdir. Ketma-ketlikning har bir bo'g'ini bir istak, maqsad yo'lida bir birlari bilan birlashadi. Bunda yuz yilliklar, ming yilliklar faqat bir g'oya atrofida jam bo'lajak. G'oyani targ'ib qiluvchilar ya'ni onalar davomiy, g'oya esa abadiydir.

"Yulduzlar to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorug' yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir" Onangizga boqing u hech ko'zingizga hunuk ko'ringanmi? Albatta yo'q. Olamdagi barcha go'zal narsalar yordamida onalarni tariflasak ham onalarning husni bilan baxslasholmaydi. Yozuvchi vafot etgan onalarning jonlari birlashib quyoshni hosil qilganligi va shu bilan farzandining vujudga iliqlik baxsh etganligiga sha'ma qiladi. Onalarga bunday ortiq ta'rif berish mumkinmi!? Kitobning orqa tomonida adibning quyidagi so'zlari keltirilgan: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sohib turadigan sehrli kuch bor. Bu—Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!" Onalarga qancha tarif taxsin aytsak oz. Bizga bergan umrlari, o'z jonlarini yulib bizga bergan hayotlari uchun biz ulardan doimo minnatdormiz. Allohdan bir jon qarzimiz bor va uni qachondir qaytaramiz. Onamizdanchi bir umrlik mehr qarzdormiz

biroq biz uni hech qachon to'la to'kis qaytarolmaymiz. Adabiyot bor ekan onalar timsoli ham mangu uning eng mitti zarrasidan eng ulkan qoyasigacha o'z ta'sirini o'tkazgan holda yashaydi. Onalarimiz nafaqat adabiyot balki hayotimiz markazida turuvchi shaxslardir. O'ylab ko'ring onangiz sizni dunyoga keltirsa-yu yoshligingizdan shunday tarbiya bermaganda siz bu yerda turarmidingiz bu darajaga yetisharmidingiz. Shunday ekan har birimiz onamiz oldidagi qarzimizni qisman bo'lsada qaytarmoq uchun yashaylik. Axir "Jannat ham onalar oyog'i ostida" ...!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. "Dunyoning ishlari " O'tkir Hoshimov 2015-yil (Meriyus nashriyoti)
2. kitobxonlardunyosi.uz/dunyoningishlari
- 3.Hoshimov.O' .(2014) Yarim asr daftari -Toshkent
- 4.Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU nashri. 2022.
5. O'tkir Hoshimov .ziyo uz.com
6. O'tkir Hoshimov . Saviya uz.com